A'zamova Saxovat	
O'ZBEKISTONDA "QISHLOQ XO'JALIGI-4.0" KONSEPSIYASINI JORIY ETISH YO'LLARI, MUAMMOLARI VA STRATEGIK ISTIQBOLLARI	879
Matrasulov Baxodir Erbutayevich	
GLOBAL COMPETITIVE POSITIONING OF UZBEKISTAN'S TOURISM SECTOR: A DISTANCE-TO-FRONTIER DIAGNOSIS ACROSS THIRTEEN DEVELOPMENT PILLARS	886
B. Sobirov	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIVAVIY RESURLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	893
Tangriyeva Farida Abdukarimovna	
МОЛИЯ ТИЗИМИДА ДАВЛАТ МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТИНИНГ МЕТОДОЛОГИК МУАММОЛАРИ	897
Ҳакимов Нодир Назарович	
MOLIYA TIZIMIDA DAVLAT MOLIVAVIY NAZORATINING METODOLOGIK MUAMMOLARI	902
Hakimov Nodir Nazarovich	
FISKAL VA MONETAR SIYOSATNING INFLYATSIYA VA DAVLAT QARZIGA TA'SIR MECHANIZMLARI	907
Narkuziyev Anvar Rustamovich	
KREDIT GAROVI MAQSADIDA KO'CHAR MULKLARNI UCH YONDASHUV ASOSIDA BAHOLASHNING METODIK XUSUSIYATLARI VA ULARNI QO'LLASH SAMARADORLIGI	912
Xo'jamqulov Jasur Jo'ra o'g'li	



KREDIT GAROVI MAQSADIDA KO'CHAR MULKLARNI UCH YONDASHUV ASOSIDA BAHOLASHNING METODIK XUSUSIYATLARI VA ULARNI QO'LLASH SAMARADORLIGI

Xo'jamqulov Jasur Jo'ra o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada kredit garovi maqsadida ko'char mulklarni baholashda qo'llaniladigan xarajat, qiyosiy va daromad yondashuvlarining metodik xususiyatlari hamda ularning amaliy qo'llash samaradorligi tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida baholash yondashuvlarini tanlash mezonlari, ularning afzallik va cheklovlari ilmiy jihatdan tahlil qilinib, kredit garovi sifatida foydalaniladigan ko'char mulklarni baholashda qaysi yondashuvning ustuvorligi baholash obyektining iqtisodiy xususiyatlari va mavjud bozor axborotlariga bog'liqligi asoslab berilgan. Shuningdek, uch yondashuv asosida baholash natijalari o'zaro taqqoslanib, ularni kompleks qo'llashning afzalliklari yoritilgan hamda baholash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kredit garovi, ko'char mulk, baholash faoliyati, bozor qiymati, xarajat yondashuvi, qiyosiy yondashuv, daromad yondashuvi, baholash metodologiyasi, kredit tavakkalchiligi, xalqaro baholash standartlari, IVS.

Abstract. This article examines the methodological features and application efficiency of the cost, market (sales comparison), and income approaches used in the valuation of movable property pledged as loan collateral. The study analyzes the criteria for selecting valuation approaches, identifies their advantages and limitations, and substantiates that the choice of an appropriate approach depends on the economic characteristics of the asset and the availability of market information. Furthermore, the valuation results obtained through the three approaches are comparatively assessed, the benefits of their integrated application are highlighted, and practical recommendations are proposed to improve the methodology of movable property valuation for lending purposes.

Keywords: loan collateral, movable property, valuation, market value, cost approach, sales comparison approach, income approach, valuation methodology, credit risk, International Valuation Standards (IVS).

Аннотация. В данной статье исследованы методические особенности и эффективность практического применения затратного, сравнительного и доходного подходов, используемых при оценке движимого имущества в целях кредитного залога. В ходе исследования научно проанализированы критерии выбора оценочных подходов, их преимущества и ограничения, а также обосновано, что при оценке движимого имущества, используемого в качестве кредитного залога, приоритетность того или иного подхода зависит от экономических характеристик объекта оценки и доступности рыночной информации. Кроме того, проведено сравнительное сопоставление результатов оценки, полученных на основе трёх подходов, раскрыты преимущества их комплексного применения и разработаны научно-практические предложения по совершенствованию оценочной практики.

Ключевые слова: кредитный залог, движимое имущество, оценочная деятельность, рыночная стоимость, затратный подход, сравнительный подход, доходный подход, методология оценки, кредитный риск, Международные стандарты оценки, IVS.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank kreditlarining ta'minlanganligini oshirish hamda kredit tavakkalchiligini samarali boshqarishda garov obyektlarini ishonchli baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ko'char mulklar — transport vositalari, ishlab chiqarish uskunolari, maxsus texnikalar va boshqa moddiy aktivlar — kredit ta'minoti sifatida keng qo'llanilayotganligi ularning bozor qiymatini ilmiy asoslangan metodlar yordamida



aniqlashni taqozo etadi. Xalqaro baholash standartlariga (IVS) muvofiq ko'char mulklarni baholashda xarajat, qiyosiy va daromad yondashuvlari asosiy metodologik vositalar hisoblanadi [1]. Biroq ushbu yondashuvlarni tanlash va qo'llash baholanayotgan obyektning xususiyatlari, mavjud bozor axborotlari hamda baholash maqsadiga qarab farqlanadi, bu esa kredit garovi maqsadida baholash metodologiyasini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasida baholash faoliyatini xalqaro standartlar asosida rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, kredit garovi maqsadida ko'char mulklarni baholashda uch yondashuvning qo'llanish chegaralari, ularning afzallik va cheklovlari hamda samaradorligini kompleks baholash masalalari yanada chuqurroq tadqiq etishni talab etadi. Shu munosabat bilan mazkur tadqiqotning maqsadi kredit garovi maqsadida ko'char mulklarni baholashda xarajat, qiyosiy va daromad yondashuvlarining metodik xususiyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning amaliy qo'llash samaradorligini baholash hamda baholash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kredit garovi maqsadida ko'char mulklarni baholashda qo'llaniladigan xarajat, qiyosiy va daromad yondashuvlarining metodik asoslari qiymat nazariyasi, korporativ moliya hamda baholash metodologiyasi yo'nalishlarida faoliyat yurituvchi ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Qiymat nazariyasi bo'yicha fundamental tadqiqotlar muallifi, iqtisodchi va huquqshunos James C. Bonbright baholash metodologiyasining nazariy asoslarini shakllantirgan olimlardan biri hisoblanadi [2]. Olimning fikricha, baholashda yagona universal qiymat mavjud emas, balki baholash maqsadi va undan foydalanuvchilar ehtiyojiga qarab turli qiymat turlaridan foydalaniladi. U baholash yondashuvini tanlashda aktivning iqtisodiy mohiyati, bozor sharoiti va baholash maqsadi kompleks hisobga olinishi zarurligini asoslab bergan. Mazkur yondashuv bugungi kunda kredit garovi maqsadida baholash metodologiyasining konseptual asoslaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Korporativ moliya va biznesni baholash bo'yicha professor Tim Koller korxona va aktivlar qiymatini aniqlashda turli baholash yondashuvlarini o'zaro uyg'un holda qo'llash zarurligini ta'kidlaydi [3]. Olimning fikricha, baholash natijasining aniqligi nafaqat tanlangan metodga, balki foydalanilayotgan axborot sifati, prognozlarning ishonchiligi hamda baholovchining professional mulohazasiga ham bevosita bog'liq.

Iqtisodchi John Burr Williams daromad yondashuvining nazariy asoslarini ishlab chiqib, aktiv qiymatini kelgusida kutilayotgan daromadlarning joriy qiymati orqali aniqlash konsepsiyasini ilmiy jihatdan asoslagan [4]. Olim tomonidan taklif etilgan diskontlash tamoyillari bugungi kunda daromad keltiruvchi aktivlarni baholashda qo'llaniladigan asosiy metodologik yondashuvlardan biri hisoblanadi.

Moliyaviy iqtisodiyot sohasidagi olim Irving Fisher kapital qiymati va foiz nazariyasini rivojlantirib, aktivning joriy qiymati uning kelajakdagi iqtisodiy manfaatlar bilan belgilanishini ilmiy asoslagan [5]. Uning ilmiy qarashlari baholash jarayonida vaqt omili va diskont stavkasini hisobga olishning nazariy poydevorini yaratgan.

Moddiy va nomoddiy aktivlarni baholash bo'yicha xalqaro ekspert Alfred M. King baholash yondashuvini tanlashda aktivning funksional xususiyatlari, bozor ma'lumotlarining mavjudligi hamda iqtisodiy foydalilik darajasi asosiy mezon bo'lishi lozimligini qayd etadi [6]. Olimning fikricha, baholashning ishonchiligi turli yondashuvlardan kompleks foydalanish orqali sezilarli darajada oshadi.

O'zbekistonlik iqtisodchi K.X. Abdurahmonov iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish va ularning qiymatini obyektiv aniqlash iqtisodiy qarorlar sifatini oshirishning muhim omili ekanligini ta'kidlaydi [7]. Olim iqtisodiy aktivlarni baholashda ilmiy asoslangan metodologiyani qo'llash investitsion va kredit munosabatlarining samaradorligini oshirishga xizmat qilishini qayd etadi.

O'zbekistonlik iqtisodchi S.S. G'ulomov bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy resurslarning real qiymatini aniqlash hamda baholash natijalarining moliyaviy boshqaruvdagi ahamiyatini tadqiq etgan [8]. Olimning fikricha, baholash metodologiyasini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish moliyaviy bozorlar samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda baholash yondashuvlarining nazariy asoslari va ularning alohida qo'llanish jihatlari yetarlicha yoritilgan. Biroq kredit garovi maqsadida ko'char mulklarni baholashda xarajat, qiyosiy va daromad yondashuvlarini tanlash mezonlari, ularning o'zaro uyg'unligi hamda qo'llash samaradorligini kompleks baholash masalalari yanada chuqurroq tadqiq etishni talab etadi. Mazkur maqolada aynan mazkur masalani ilmiy jihatdan yoritish maqsadida uch yondashuvning metodik xususiyatlari tizimli ravishda tahlil qilinadi va ularni kredit garovi amaliyotida qo'llash samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda kredit garovi maqsadida ko'char mulklarni baholashda qo'llaniladigan xarajat, qiyosiy va daromad yondashuvlarining metodik xususiyatlari hamda ularni qo'llash samaradorligini baholash uchun kompleks ilmiy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini Xalqaro baholash standartlari (IVS), O'zbekiston Respublikasining Yagona milliy baholash standarti, baholash faoliyatiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda baholash metodologiyasi bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida tizimli va qiyosiy tahlil, kontent-tahlil, mantiqiy umumlashtirish, ekspert baholash, analoglarni taqqoslash (comparative analysis) hamda amaliy keys usullaridan foydalanildi. Shuningdek, kredit garovi sifatida taqdim etilgan ko'char mulk obyektni xarajat, qiyosiy va daromad yondashuvlari asosida baholash natijalari o'zaro taqqoslanib, ularning samaradorligi ko'p mezonli baholash (Multi-Criteria Analysis) usuli yordamida tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kredit garovi maqsadida ko'char mulklarni baholashda qo'llaniladigan metodologiya baholash natijalarining aniqligi va ishonchliligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Xalqaro baholash standartlari (IVS) hamda O'zbekiston Respublikasining Yagona milliy baholash standartiga muvofiq, ko'char mulklarni baholashda xarajat, qiyosiy va daromad yondashuvlari asosiy metodologik yondashuvlar sifatida e'tirof etiladi. Biroq mazkur yondashuvlarning har biri baholash obyektning iqtisodiy tavsifi, undan foydalanish maqsadi, bozor ma'lumotlarining mavjudligi hamda aktivning daromad keltirish xususiyatiga qarab turlicha natijalar beradi. Shu sababli kredit garovi maqsadida baholashda baholash yondashuvini to'g'ri tanlash kredit riskini kamaytirish va garov ta'minotining ishonchliligini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.


Xalqaro baholash standartlariga muvofiq, baholash yondashuvini tanlashda aktivning iqtisodiy mohiyati, bozor analoglarining mavjudligi, aktivdan kutilayotgan iqtisodiy manfaatlar hamda baholash maqsadi asosiy mezon sifatida qaraladi. Kredit garovi maqsadida baholashda ushbu mezonlarning kompleks hisobga olinishi baholash natijalarining obyektivligini oshirish bilan bir qatorda, kredit tashkilotlari tomonidan garov riskini baholash sifatini ham yaxshilaydi.

1-jadval

Kredit garovi maqsadida ko'char mulklarni baholashda qo'llaniladigan yondashuvlarning metodik tavsifi¹

Mezoni	Xarajat yondashuvi	Qiyosiy yondashuv	Daromad yondashuvi
Asosiy mazmuni	Aktivni qayta tiklash yoki almashtirish xarajatlari asosida qiymatni aniqlash	O'xshash obyektlarning bozor narxlari bilan taqqoslash	Kelajakdagi daromadlarni diskontlash yoki kapitallashtirish
Asosiy axborot manbai	Xarajat smetalari, ishlab chiqaruvchi ma'lumotlari	Bozor analoglari	Pul oqimlari prognozi
Qo'llash sohasi	Maxsus uskunalar, yangi aktivlar	Faol bozor mavjud bo'lgan aktivlar	Daromad keltiruvchi aktivlar
Afzalligi	Hisoblash oddiy, bozor bo'lmasa ham qo'llaniladi	Eng obyektiv bozor qiymatini beradi	Investitsion qiymatni aks ettiradi
Kamchiligi	Bozor talabini hisobga olmaydi	Analoglar topilishi qiyin	Prognozlarga yuqori darajada bog'liq
Kredit garovi uchun mosligi	Yuqori	Juda yuqori	O'rta

¹ **Manba:** IVS (2024), O'zbekiston Respublikasining Yagona milliy baholash standarti (2023) hamda muallif ishlanmasi asosida tuzilgan.




1-rasm. Kredit garovi maqsadida baholash yondashuvini tanlash algoritmi²

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, kredit garovi maqsadida ko'char mulklarni baholashda universal yondashuv mavjud emas. Har bir metodning qo'llanish sohasi, afzalliklari va cheklovlari baholanayotgan aktivning iqtisodiy xususiyatlariga bog'liq. Faol ikkilamchi bozorga ega transport vositalari va standart ishlab chiqarish uskunalari baholashda qiyosiy yondashuv yuqori aniqlikni ta'minlasa, noyob yoki maxsus texnologik uskunalarida xarajat yondashuvi ustunlik qiladi. Daromad yondashuvi esa ijaraga beriladigan yoki mustaqil daromad oqimini shakllantiruvchi aktivlarni baholashda samarali hisoblanadi.

Kredit garovi maqsadida baholashda yondashuvni tanlash qat'iy belgilangan metodga emas, balki aktivning iqtisodiy tabiati, bozor ma'lumotlarining mavjudligi va kredit riski darajasini kompleks hisobga oluvchi metodik algoritimga asoslanishi maqsadga muvofiqdir. Aynan shunday yondashuv baholash natijalarining ishonchligini oshirish va banklarning kredit portfeli sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Baholash yondashuvining samaradorligi faqat baholash natijasining aniqligi bilan emas, balki uning kredit garovi maqsadlariga qanchalik mos kelishi, bozor ma'lumotlaridan foydalanish imkoniyati hamda baholash natijasining ishonchligi bilan ham belgilanadi. Kredit tashkilotlari uchun garov qiymatini aniqlashda eng muhim talab baholash natijasining bozor sharoitlariga yaqinligi va kredit riskini kamaytirish hisoblanadi. Shu sababli baholash jarayonida xarajat, qiyosiy va daromad yondashuvlari bir-birini inkor etuvchi emas, balki aktivning iqtisodiy xususiyatlarini turli jihatlaridan yorituvchi metodlar sifatida qaraladi.



2-rasm. Uch yondashuvning o'zaro uyg'unligi (Venn diagrammasi)³


² Manba: muallif ishlanmasi.

³ Manba: muallif ishlanmasi.

Venn diagrammasi uch yondashuvning o'zaro bog'liqligi va har birining kredit garovi maqsadida bajaradigan funksiyasini yaqqol namoyon etadi. Xarajat yondashuvi aktivning tiklanish yoki almashtirish qiymatini aniqlash orqali uning minimal iqtisodiy qiymatini belgilashga xizmat qiladi. Qiyosiy yondashuv faol bozor ma'lumotlari asosida aktivning joriy bozor qiymatini aks ettiradi va kredit tashkilotlari tomonidan eng ko'p qo'llaniladigan yondashuv hisoblanadi. Daromad yondashuvi esa aktivning kelgusidagi iqtisodiy manfaatlarini baholash imkonini beradi hamda daromad keltiruvchi ko'char mulklar uchun yuqori amaliy ahamiyat kasb etadi.

Diagrammadagi kesishish sohasi uchala yondashuvning umumiy maqsadi — obyektiv va ishonchli bozor qiymatini aniqlash ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, yondashuvlarning kompleks qo'llanilishi baholash natijasining ishonchligini va xolisligini oshiradi hamda kredit garovi qiymatini aniqlashdagi xatolik ehtimolini pasaytiradi. Shu bois xalqaro baholash standartlari imkon qadar bir nechta yondashuv natijalarini o'zaro solishtirish va yakuniy xulosani professional mulohaza asosida shakllantirishni tavsiya etadi.

Baholash metodologiyasining samaradorligini yanada chuqurroq baholash maqsadida uch yondashuv aniqlik darajasi, bozor axborotlariga bog'liqligi, qo'llash qulayligi, hisob-kitoblarning murakkabligi, natijaning ishonchligi hamda kredit garovi amaliyotiga mosligi mezonlari bo'yicha qiyosiy baholandi. Ushbu mezonlar baholash amaliyotida yondashuvlarni tanlashga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar hisoblanadi. Baholash 0 dan 5 ballgacha bo'lgan shkalada amalga oshirildi, bunda 0 — eng past, 5 — eng yuqori samaradorlik darajasini anglatadi.



*radar diagrammasidagi ballar Xalqaro baholash standartlari (IVS), O'zbekiston Respublikasining Yagona milliy baholash standarti talablari hamda muallifning ekspert baholashiga asoslangan holda shakllantirildi

3-rasm. Baholash yondashuvlarining samaradorligi (Radar diagrammasi)⁴

Radar diagrammasi natijalari shuni ko'rsatadiki, qiyosiy yondashuv aniqlik darajasi, bozor qiymatini aks ettirish va kredit amaliyotiga mosligi bo'yicha eng yuqori natijalarni namoyish etadi. Buning asosiy sababi baholashning real bozor bitimlari va o'xshash obyektlar narxlariga tayanishidir. Biroq mazkur yondashuvning samaradorligi o'xshash obyektlar bo'yicha ma'lumotlarning mavjudligi va sifati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bozorda yetarli axborot mavjud bo'lmagan hollarda uning qo'llanish imkoniyatlari sezilarli darajada cheklanadi.

Xarajat yondashuvi hisob-kitoblarning nisbatan soddada tuzilishi, maxsus va noyob uskunalarini baholash imkoniyati hamda bozor ma'lumotlariga kamroq bog'liqligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, u bozor kon'yunkturasidagi talab va taklif omillarini to'liq aks ettira olmasligi sababli ayrim hollarda bozor qiymatidan farq qiluvchi natijalarni yuzaga keltirishi mumkin.

Daromad yondashuvi esa daromad keltiruvchi ko'char mulklar uchun eng iqtisodiy asoslangan metod hisoblanadi. Ammo ushbu yondashuv kelgusidagi pul oqimlarini prognozlash, diskont stavkasini tanlash hamda

4 Manba: muallif ishlanmasi.



iqtisodiy noaniqliklarni baholashga yuqori darajada bog'liq bo'lgani sababli uni barcha turdagi ko'char mulklarga tatbiq etish maqsadga muvofiq emas.

Umuman olganda, radar diagrammasi natijalari kredit garovi maqsadida ko'char mulklarni baholashda bitta yondashuvni mutlaq ustun deb hisoblash mumkin emasligini ko'rsatadi. Baholashning ishonchligi baholash obyekti iqtisodiy tavsifi, bozor axborotlari mavjudligi va baholash maqsadidan kelib chiqib yondashuvlarni kompleks qo'llash orqali ta'minlanadi. Shu sababli kredit garovi amaliyotida uchala yondashuvni o'zaro to'ldiruvchi metodlar sifatida qo'llash baholash natijasining aniqligi va kredit riskini baholash sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Baholash yondashuvlarining amaliy samaradorligini aniqlash maqsadida kredit garovi sifatida taqdim etilgan ko'char mulk obyekti misolida uch yondashuv asosida baholash amalga oshiriladi. Keys sifatida ishlab chiqarish korxonasiga tegishli bo'lgan CNC metallga ishlov berish stanogi tanlanadi. Mazkur obyektning tanlanishiga sabab uning yuqori qiymatga egaligi, bank kreditlari bo'yicha garov sifatida tez-tez qo'llanilishi hamda xarajat, qiyosiy va daromad yondashuvlarini bir vaqtda qo'llash imkoniyatining mavjudligidir.

2-jadval

Kredit garovi sifatida baholanayotgan obyekt tavsifi⁵

Ko'rsatkich	Tavsifi
Obyekt	CNC metallga ishlov berish stanogi
Ishlab chiqaruvchi	Haas Automation
Model	VF-4 CNC
Ishlab chiqarilgan yili	2022
Joylashgan joyi	Toshkent shahri
Foydalanish muddati	3 yil
Texnik holati	Yaxshi
Eskirish darajasi	18%
Boshlang'ich qiymati	1 180 000 000 so'm
Baholash maqsadi	Bank krediti uchun garov

*baholashda O'zbekiston Respublikasining Yagona milliy baholash standarti hamda Xalqaro baholash standartlari (IVS) talablari asos qilib olindi.

Xarajat yondashuvi bo'yicha obyekt qiymati tiklanish qiymati va jamlangan eskirish miqdori asosida aniqlandi.

$$V = C_{new} - D$$

bu yerda

V — obyekt qiymati;

C_{new} — yangi analogni sotib olish qiymati;

D — eskirish summasi.

Hisob-kitob:

$$D = 1.18 \times 0.18 = 212.4 \text{ mln}$$

$$V = 1180 - 212.4 = 967.6 \text{ mln so'm}$$

Qiyosiy yondashuv bo'yicha bozorda uchta analog uskunaning sotuv narxlari tahlil qilindi⁶.

3-jadval

Analog	Narxi
1	945 mln
2	980 mln
3	960 mln

O'rtacha qiymat

$$V = \frac{945 + 980 + 960}{3} = 961.7 \text{ mln so'm}$$

⁵ Manba: muallif ishlanmasi.

⁶ Manba: muallif ishlanmasi.




Bozor sharoiti va texnik holat uchun 2 % miqdorida tuzatish kiritildi.
Yakuniy qiymat — 981 mln so‘m.

Daromad yondashuvi bo‘yicha mazkur uskuna ishlab chiqarishda yiliga 280 mln so‘m sof pul oqimi yaratadi.
Diskont stavkasi — 18 %. Foydalanish muddati — 5 yil.

DCF formulasi:

$$PV = \sum_{t=1}^5 \frac{CF_t}{(r+1)^t}$$

Hisoblash natijasi — 950 mln so‘m.



4-rasm. Uch yondashuv asosida baholangan uskuna natijalarining taqqoslanishi⁷

Olingan natijalar kredit garovi maqsadida ko‘char mulklarni baholashda faqat bitta yondashuvga tayanish maqsadga muvofiq emasligini ko‘rsatadi. Aksincha, uchala yondashuv natijalarini o‘zaro solishtirish va baholovchining professional mulohazasi asosida yakuniy bozor qiymatini shakllantirish baholashning ishonchliligini oshiradi hamda bank kreditlari bo‘yicha garov riskini kamaytirishga xizmat qiladi.

Amaliyotda ko‘char mulklarni baholash jarayonida uchala yondashuv bo‘yicha olingan natijalar aksariyat hollarda bir-biridan farq qiladi. Bunday vaziyatda baholovchi oldida eng muhim vazifalardan biri yakuniy bozor qiymatini ilmiy asoslangan holda aniqlashdan iborat bo‘ladi. Xalqaro baholash standartlariga ko‘ra, yakuniy qiymat uchala yondashuv natijalarining oddiy arifmetik o‘rtachasi sifatida emas, balki baholash maqsadi, obyektning iqtisodiy tavsifi, mavjud bozor axborotlari hamda baholovchining professional mulohazasi asosida shakllantiriladi. Shu nuqtai nazardan, kredit garovi maqsadida baholashda turli yondashuvlarning ishonchlilik darajasini hisobga oluvchi integrallashgan metodik yondashuvni qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mazkur masalani metodik jihatdan takomillashtirish maqsadida kredit garovi maqsadida ko‘char mulklarni baholash uchun integrallashgan og‘irlik koeffitsiyentlariga asoslangan baholash modeli taklif etiladi. Ushbu modelning mohiyati shundan iboratki, uchala baholash yondashuvi natijalari ularning kredit amaliyotidagi ishonchlilik darajasi va qo‘llash samaradorligidan kelib chiqib, turli og‘irlik koeffitsiyentlari bilan baholanadi hamda yakuniy garov qiymati ushbu koeffitsiyentlar asosida hisoblab chiqiladi.

Modelda qiyosiy yondashuvga 0,50, xarajat yondashuviga 0,30, daromad yondashuviga esa 0,20 og‘irlik koeffitsiyenti berish taklif etiladi. Bunday taqsimot kredit garovi maqsadida baholashning amaliy xususiyatlari bilan izohlanadi.

$$V_{yakuniy} = \sum_{i=1}^n w_i \times V_i$$

bu yerda:

$V_{yakuniy}$ — yakuniy garov qiymati;

V_i — har bir baholash yondashuvi bo‘yicha aniqlangan qiymat;

w_i — tegishli yondashuvning og‘irlik koeffitsiyenti.

⁷ Manba: muallif ishlanmasi.



$$V_{\text{yakuniy}} = (967.6 \times 0.30) + (981.0 \times 0.50) + (950.0 \times 0.20) = 970.78 \text{ mln so'm}$$

Mazkur modelning afzalligi shundaki, u baholash natijalarini oddiy arifmetik o'rtacha qiymat asosida emas, balki har bir yondashuvning amaliy ahamiyati va ishonchlilik darajasini hisobga olgan holda integrallash imkonini beradi. Natijada yakuniy baholash qiymatining bozor sharoitlariga yaqinligi ortadi, baholash natijalarining obyektivligi ta'minlanadi hamda kredit tashkilotlari uchun garov ta'minotining ishonchlilik darajasi oshadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda kredit garovi maqsadida ko'char mulklarni baholashda qo'llaniladigan xarajat, qiyosiy va daromad yondashuvlarining metodik xususiyatlari hamda ularni qo'llash samaradorligi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, har bir yondashuvning afzallik va cheklovlari baholanayotgan aktivning iqtisodiy tavsifi, bozor axborotlarining mavjudligi hamda baholash maqsadiga bog'liq bo'lib, kredit garovi uchun yagona universal baholash usuli mavjud emas.

Amaliy misol natijalari uchala yondashuv bo'yicha aniqlangan qiymatlar o'rtasida ma'lum tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi. Bu esa kredit garovi qiymatini aniqlashda faqat bitta yondashuvga tayanish baholash natijasining ishonchliligini pasaytirishi mumkinligini tasdiqlaydi. Shu sababli baholash natijalarini kompleks tahlil qilish va ularni integrallashgan metodik yondashuv asosida umumlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tadqiqot doirasida taklif etilgan integrallashgan metodik yondashuv baholash natijalarining obyektivligini oshirish, baholovchining professional qarorini ilmiy jihatdan asoslash hamda kredit tashkilotlari uchun garov ta'minotining ishonchliligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv baholash amaliyotini Xalqaro baholash standartlari (IVS) talablariga yanada yaqinlashtirish imkonini beradi.

Kelgusida kredit garovi maqsadida ko'char mulklarni baholash metodologiyasini takomillashtirish uchun maxsus uskunalar bo'yicha bozor ma'lumotlari bazasini kengaytirish, baholash natijalarini integrallash tamoyillarini amaliyotga joriy etish hamda baholash jarayonida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. International Valuation Standards Council. International Valuation Standards (IVS). London: IVSC, 2024.
2. Bonbright, J. C. The Valuation of Property: A Treatise on the Appraisal of Property for Different Legal Purposes. New York: McGraw-Hill Book Company, 1937.
3. Koller, T., Goedhart, M., Wessels, D. Valuation: Measuring and Managing the Value of Companies. 7th ed. Hoboken: John Wiley & Sons, 2020.
4. Williams, J. B. The Theory of Investment Value. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1938. 613 p.
5. Fisher, I. The Theory of Interest: As Determined by Impatience to Spend Income and Opportunity to Invest It. New York: Macmillan Company, 1930. 566 p.
6. King, A. M. Valuation: What Assets Are Really Worth. New York: John Wiley & Sons, 2001. 320 p.
7. Damodaran, A. Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset. 3rd ed. Hoboken: John Wiley & Sons, 2012.
8. Pratt, S. P., Grabowski, R. J. Cost of Capital: Applications and Examples. 5th ed. Hoboken: John Wiley & Sons, 2014.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 5 (3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>